

<b>Fan platformasi</b>		
Fanning to'liq nomi: <b>Yog'och buyumlari texnologiyasi 1</b>		
Fan kodi: YBT2309	Fanga ajratilgan kreditlar (ECTS): 4	davomiyligi: 1 semestr
Kafedra: Sellyuloza va yog'ochsozlik texnologiyasi		
Fan qaysi yo'nalish talabalari uchun: Texnologik mashinalar va jihozlar (mebel va yog'ochsozlik sanoati)		
Fan ma'ruza o'qituvchisi: Ilxamov G'iyos Usmanovich		
Fanga ajratilgan umumiy soatlar: 120	Email: Ilkhamov2017@mail.ru	
Fan seminar mashg'ulotlari o'qituvchisi(lari): Ilxamov G'.U. Aliyev S.S.		
Prerekvizitlar: Texnologik mashinalar va jihozlar. Tanlov turi: majburiy fan ixtisoslik kadrlarni tayyorlash		
<p><b>Fanning qisqacha bayoni:</b> “Yog'och buyumlari texnologiyasi 1” fani majburiy fanlar blokiga kiritilgan kurs hisoblanib, 3-kursda o'qitilishi maqsadga muvofiq. Mazkur fan tabiiy fanlar turkumiga kiradi. Fanni puxta o'zlashtirish nazariy materiallarni bilish bilan birga, talabalarning pedagogik va ishlab chiqarish amaliyoti davrida va universitetni bitirgandan keyingi ishlarda ko'nikma sifatida xizmat qiladi.</p>		

**Fanning maqsadi:** yog'och buyumlarini yaratish o'ta murakkab va mas'ul masala bo'lib fan, texnika va texnologiya yutuqlaridan unumli foydalanishni taqozo etadi. Shu sababdan ham soha mutaxassisleri hozirgi zamon fan-texnika yutuqlarini, sanoat korxonalarini iqtisodiyotining nozik jihatlarini bilishlari shart.

Bularning barchasi soha mutaxassisleri oldiga Respublika iqtisodiyotini ko'tarish yo'lida jipslashib, qat'iy mehnat intizomiga rioya qilgan holda, ishlab chiqarish resurslaridan tejab foydalanish, yuqori texnik-iqtisodiy ko'rsatqichlarga erishish talablarini qo'yadi.

**Fan yakunida talabalar quyidagi malaka va ko'nikmalarga ega bo'lishadi:**

- Yog'och buyumlar klassifikatsiyasi. Mebel va duradgorlik buyumlarining ishlatilishi. Mebel va duradgorlik buyumlarining o'lchamlari. Yog'och buyumlarning badiiy konstruksiyasi. Yog'och buyumlari birikmalari. Mebel birikmalari va konstruktiv elementlari. Detallar va yig'ma birliklarning turlari va tasavvurga ega bo'lishi;
  - Shkaflar va tumbalarning konstruksiyalari. Kombinirlangan shkaflarning konstruksiyalari. Stollarning konstruksiyalari. O'tirish uchun mo'ljallangan mebellarning konstruksiyalari. Yumshoq mebellarning konstruksiyalari. Dahliz, vanna va terassa mebellarining konstruksiyalari. Eshik va derazalarning konstruksiyalari. Buyum o'lchamlarining aniqligi. Detal aniqligiga ta'sir ko'rsatuvchi omillarni *bilish va ulardan foydalana olish*;
- Yog'och buyumlarni ishlab chiqarish usullarini takomillashtirish, mebel birikmalari va konstruktiv elementlari usullariga moslab shakllantirish, zagotovkalariga birlamchi mexanik ishlov berish va egish jarayonlarni o'rganish, himoya-dekorativ qoplamalarni hosil bo'lish jarayonlari takomillashtirish va yog'och buyumlari jarayonlarining zamonaviy loyihalarini ishlab chiqishdir

**Ma'ruza mashg'ulotlari**

Ma'ruza mashg'ulotlari katta sig'imli, multimedia qurilmalari bilan jihozlangan o'quv auditoriyalarida olib boriladi.

**Amaliy mashg'ulotlar**

Amaliy mashg'ulotlar multimedia qurilmalari bilan jihozlangan auditoriyada har bir akademik guruhga alohida o'tiladi. Mashg'ulotlar faol va interfaol usullar yordamida o'tiladi, “Keys-stadi” texnologiyasi ishlatiladi. Ko'rgazmali materiallar va axborotlar multimedia qurilmalari yordamida uzatiladi. Shuningdek, mavzudan kelib chiqib dars

mashg'uloti mehmonxonada sayyor dars tarzida olib boriladi. **Mustaqil ta'lim**  
Mustaqil o'zlashtiriladigan mavzular bo'yicha talabalar tomonidan taqdimotlar, guruh bilan ishlanmalar, referatlar tayyorlanadi.

<b>№</b>	<b>Fan mavzulari</b>	<b>Ma'ruza soatlar hajmi</b>	<b>Amaliy mashg'ulot soatlar hajmi</b>	<b>Mustaqil ta'lim soatlari</b>
1	Yog'och buyumlar va ularning konstruktiv elementlari			
2	Mebel va duradgorlik buyumlarining o'lchamlari			
3	Mebel birikmalari va konstruktiv elementlari			
4	Yog'och buyumlari konstruksiyalari			
5	Stollarning konstruksiyalari			
6	Yumshoq mebellarning konstruksiyalari			
7	Eshik va derazalarning konstruksiyalari			
8	Buyum o'lchamlarining aniqligi			
<b>Jami</b>		<b>24</b>	<b>24</b>	<b>72</b>

#### **Asosiy adabiyotlar**

1. Xabibullayev R.A., Ilhomov G'.U., Xabibullayev Sh.A. Yog'och buyumlar texnologiyasi. Darslik. O'z.R OO'MTV/ T.: Cho'lpon nomidagi NMIU, 2014. 256 b.

#### **Qo'shimcha adabiyotlar**

2. Winchester K. and etc. Encyclopedia of wood. "Time-life books". USA. 2005. 148 p.
3. Wood anatomy. USA, WERC. 2014, 69 p.
4. Герке Л.Н., Башкиров В.Н., Князева А.В. Древесиноведение. Казань: Изд-во КНИТУ, 2014 г., 104 с.
5. Wood Identification for Hardwood and Softwood Species Native to Tennessee. The University of Tennessee. 2002, 16 p.

#### **Internet saytlari**

6. <http://sawwood.ru/log/383>
7. <https://pristineblue.ru/napolnye-pokrytiya/types-of-trees-and-how-to-distinguish-how-to-identify-the-wood-species-study-materials.html>
8. <https://furniture123.co.uk/content/wood-types>
9. <https://www.wood-database.com/wood-articles/wood-identification-guide/>

**Kontakt soatlari\*:** mustaqil ta'lim topshiriqlarini bajarish, ularni taqdim etish, zarur ma'lumotlar va turli materiallar bo'yicha savollarga quyidagi grafik asosida o'qituvchiga murojaat qilishingiz mumkin:

<b>№</b>	<b>Kun</b>	<b>Vaqt</b>	<b>Xona</b>
1.	Seshanba	10.00 – 12.00	101
2.	Payshanba	10.00 – 12.00	101